“VIJDON“ LEKSEMASINI MA’NOVIY UYALARI

Ibrohimova Saida
NavDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi
F.Yuldashev
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “ma’naviyat” leksik kategoriyasining “vijdon” ma’noviy guruhi bir qancha ma’noviy uyalarga bo‘lib o‘rganildi. Ulardagi integral va differensial semalar aniqlanib, integral semalar misollar doirasida o‘zaro qiyoslandi. Bu orqali o‘quvchilar uchun vijdonga oid didaktik matnlar yaratishdagi kamchiliklarga barham berish nazarda tutildi.

Kalit so‘zlar: “vijdon” ma’noviy guruhi, “halol /halol bo‘lmagan” ma’noviy uyasi, “rostgo‘y/ yolg‘onchi” ma’noviy uyasi, integral sema, differensial sema, iboralar, maqollar.

“Ma’naviyat” kategoriyasini tilshunoslikda o‘rganilishi bugungi kunda yangi bir soha – lingvoma’naviyatshunoslikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu soha esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson ma’naviyati bilan bog‘liq. Vijdon ma’naviyatga oid tushuncha bo‘lib, “ma’naviyat mazmuniy maydoni”ning bir qismi sanaladi.

MA’NAVIYAT – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. Ma’naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Ma’naviyat ma’rifat va madaniyat bilan bog‘liq. *Vijdon nima, yolg‘on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi.* Qisqasi, ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.[1]


Vijdon leksemasi besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’riflanadi. **Vijdon** (a. ehtiros, his – tuyg‘u; insof, diyonat) - kishining o‘z xatti- harakati, qilmishi, yurish – turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof. *Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, yagona zaminni asaragansimon.* A. Oripov . *Bu odamgarchilikdan, vijdondan emas. Bu – pastlik.* P.Tursun, O‘qituvchi. *Nahotki ular g‘urur, oriyat, vijdon degan insoniylikning ulug‘ xislatlaridan yuz o‘girgan bo‘lsa?*Gazetadan [2].

“Vijdon” leksemasi yadrosida “halollik”, “qalban poklik”, semalari yotadi . Shu sababdan,“Ma’naviyat” leksik kategoriyasining “vijdon” ma’noviy guruhini bir qancha ma’noviy uyalarga bo‘lish mumkin. Ulardan biri “Shaxs xatti- harakatlarini nazorat qilish” mavzuiy guruhi. Bu guruh o‘z ichida ham ma’lum uyalarga ajraladi.

1. “Halol/nohalol” manoviy uyasi : poklik- nopoklik, halol - harom, insof egasi - insofni bilmaydigan, adolat bilan ish qiluvchi -adolatni suiiste’mol qiluvchi, vijdonli- vijdonsiz;
2. “Rostgo‘y/ yolg‘onchi” ma’noviy uyasi: to‘g‘riso‘z - yolg‘onchi, bir so‘zli -qasamxo‘r, sotqin - xiyonat qilmaydigan, halol – harom, vijdonsiz – vijdonli kabi.[3]

Yuqoridagi kabi ma’noviy uyalar qatorini yana davom ettirish mumkin. Ushbu uyalar tarkibidagi ijobiy va salbiiy semalar qay darajada o‘xshash va farqli ekanligini ko‘rib o‘tmoqchimiz. Buni “ Venn diagrammasi” orqali farqlaymiz: **Halol/ nohalol** **Rostgo‘y/ yolg‘onchi**

[1] B.T. Axtanov, M.B.Isaboyev . Fuqarolik jamiyati fanidan asosiy tushunchalar lug’ati. -T.,2016. 174-b.
[2] O’zbek tilining izohli lug’ati . 5 jildli . 1-tom. – T., 2016 . 459-b.
[3] Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 5 -bet



Ko‘rib turganimizdek, bu uyalardagi “halol – harom” hamda “vijdonli – vijdonsiz” semalari umumiy, ya’ni integral sema, qolgan semalar esa xususiy, ya’ni differensial sema hisoblanadi. Yuqorida aytilgan fikrlarni iboralar misolida amaliy ko‘rib chiqishni ma’qul topdik.

“Vijdoni uyg‘onmoq” hamda “vijdonidan yuz o‘girmoq” kabi iboralarning biri tarkibida *harakatga kelmoq* semasi, yana biri tarkibida esa *ma’lum bir harakatdan to‘xtash* ya’ni *vijdon bilan ish ko‘rish va vijdon bilan ish ko‘rmaslik* semalari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Diagrammada farqlaganimizdek, bu ikki ibora tarkibidagi “vijdonli – vijdonsiz” semalari “halol /nohalol” va “rostgo‘y / yolg‘onchi” ma’noviy uyalari uchun integral sema vazifasini o‘tamoqda. Vijdonga oid iboralar qatoriga *vijdonini yutmoq, vijdoni ishga kirishdi, vijdonim qabul qilmaydi, vijdoni oldida javob bermoq, vijdonini sotmoq* kabilarni ham kiritish mumkin. Xususan, vijdonini yutmoq iborasiga shunday ta’rif berilgan:

Vijdonini yutmoq – insof, diyonatdan tashqari, vijdonsizlik bilan ish tutmoq. *Kimki pora bersa, u vijdonini yutgan, pokligini yo‘qotgan bo‘ladi*. Gazetadan[4].

Bu yerda biz faqat ibora bilangina chegaralanib qolmay, yadrosida vijdon semasi mavjud bo‘lgan maqollarni ham keltirib o‘tamiz. Ular quyidagicha:

Vijdondan kechgan yiqilar ;
Vijdonsiz – imonsiz ;
Vijdonsiz kishidan o‘pkalama;
Ostonadan ayvon yaxshi,
Vijdonsizdan hayvon yaxshi [5] kabi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan misollarimiz “shaxs xatti – harakatlarini nazorat qilish“ mavzuiy guruhi tarkibidagi har ikki ma’noviy uyalar uchun umumiy bo‘lgan semalar va yadrosida ushbu semalar turadigan ibora va maqollar qatoridan tashkil topgan.

Yadrosida “halol – harom” semalari mavjud bo‘lgan iboralarga *peshona teri, halol luqma, harom o‘lmoq, harom qilmoq* kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu o‘rinda “peshona teri” iborasi halol mehnatni, “halol luqma” halollik bilan topilgan pul, narsa, ovqat kabilarni ifodalab keladi. “Harom o‘lmoq”, “harom qilmoq” iboralari esa yuqoridagi iboralar semalariga antonimdir. Bu misollar orqali “halol – harom” ma’noviy uyasi “vijdon” ma’noviy guruhi tarkibidagi “shaxs xatti – harakatlarini nazorat qilish” mavzuiy guruhiga mansubligini ko‘rishimiz mumkin. Bir so‘z bilan aytganda “halol – harom”lik “vijdon” mazmuniy maydonining bir kichik guruhidir.

[4] O’zbek tilining izohli lug’ati . 5 jildli . 1-tom. – T., 2016 . 459-b.
[5] O’zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.-T ., 2005

“Halollik” konseptida ham diniy, ham etnik, ham tarbiyaviy tushuncha bor. Unda birovning haqiga xiyonat qilmaslik, mehnat qilib yashash kerakligi haqidagi tarbiyaviy yuk ham o‘rin olgan.[6] Tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini maqollar doirasida ko‘rib chiqamiz:

Halol ish – lazatli yemish;

Halol ishla – halol tishla;

Halol mehnat yerda qolmas;

Halol mehnat – mo‘l daromad[7] kabilar.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, “ma’naviyat” kategoriyasi va unga oid birliklar o‘zbek xalq maqollarining katta qismini tashkil etadi.

“Vijdon” ma’noviy guruhini bir qancha mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish o‘quvchilar uchun tushunarlilikni oshiradi. O‘quvchilar uchun yaratilayotgan didaktik matnlardagi kamchiliklarning oldini olish va ularga matn mazmunini oson tushuntirishda bu usul juda qo‘l keladi. Toki bu didaktik matnlar o‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib, ularning lug‘at boyligining oshishi uchun xizmat qilsin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.T. Axtanov, M.B.Isaboyev . Fuqarolik jamiyati fanidan asosiy tushunchalar lug‘ati. -T.,2016
2. Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 5 jildli . 1-tom. – T., 2016 .
4. O‘zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.-T., 2005

[6] Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 5 -bet

[7] O’zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.-T ., 2005 .43-b.